



MASAL JANRI HAQIDA VA UNING TARIXIY GENEZISI

O'rozova Muborak

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

Muborakorozova2005@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada masal janriga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu janrning adabiyotda paydo bo'lishi, rivojlanishi va tarixiy shakllanish bosqichlari haqida fikr yuritiladi. Masalning asosiy belgilari, undagi o'ziga xos badiiy xususiyatlari ushbu janrning o'lmas bo'lishiga zamin yaratgan adiblar va ularning beqiyos masallarini tahlil qilish orqali ochib beriladi.

KALIT SO'ZLAR: masal janri, genezis, didaktika, badiiy shakl, xulosa, pand-nasihat, masalchilik otasi, rus masalchiligi, mumtoz adabiyotda masalchilik.

ANNOTATION: This article focuses specifically on the fable genre, exploring its emergence, development, and historical formation within literature. The main characteristics of fables and their unique artistic features are examined through the analysis of prominent authors whose invaluable contributions and timeless fables have ensured the immortality of this literary genre.

KEYWORDS: fable genre, genesis, didactics, literary form, moral, advice and counsel, father of fables, Russian fabulism, fables in classical literature.

АННОТАЦИЯ: В данной статье особое внимание уделяется жанру басни, рассматриваются этапы его появления, развития и исторического формирования в литературе. Основные черты басни и её художественные особенности раскрываются через анализ выдающихся авторов, чьё бесценное творчество и бессмертные басни способствовали сохранению этого жанра на протяжении веков.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: жанр басни, генезис, дидактика, художественная форма, мораль, наставление, отец баснописания, русская басня, баснописание в классической литературе.



Adabiyot insoniyat tafakkuri va tajribasining badiiy aksidir. Uning shakl va janrlari inson ongingin turli bosqichlarida yuzaga kelib, jamiyat ehtiyojiga qarab taraqqiy etgan. Shunday janrlardan biri — masaldir. Masal — bu insoniyatning jonivorlar haqidagi ilk ibridoiy ertaklari bilan ulardan ancha keyin paydo bo‘lgan maqol, matal va zamonaviy latifalar orasidagi muhim bir majoziybekatdir. Uning yoshi ming yillar bilan o‘lchanadi.¹ Masaldan, asosan, kishilar o‘z mustaqil fikrini ochiq-oydin ifoda etolmaganliklari natijasida foydalanishgan. Masalda turmush va undagi voqealar, insonlar hayoti kinoyaviy obrazlar orqali tasvir etiladi. Unda ko‘pincha hayvonlar, qushlar, ba‘zan esa narsa-predmetlat obrazi yaratiladi. Ayni paytgacha o‘sha hayvon va qushlar xarakter-xususiyatlari, qiliq-odatlari haqida ma‘lum bir tasavvur shakllanib bo‘lgan. Masalan, yo‘lbars - pahlavon, bo‘ri - laqma, yirtqich, ayiq - qo‘pol, galvars, tulki - ayyor, mug‘ombir, qo‘y - sodda, yuvosh, echki - dono, mehnatkash, mehribon, quyon - qo‘rqoq, it - sadoqatli do‘st, ho‘kiz - menatkash va hokazo.²

Masal xalq og‘zaki ijodida ham she’riy, ham nasriy yo‘lda yozilgan, asosini majoziy va ramziy obrazlarning faol harakati tashkil etgan, ta‘limiy mazmundagi satirik va yumoristik tanqid ruhida bayon qilingan kichik hikoyadir. Bu janrning xalq poetik ijodiga yaqinligi, uni avvalo donishmand xalq yaratganligi, so‘ng esa yozuvchilar, shu jumladan, Ezop o‘z ijodida takomillashtirgani xususida so‘z boradi. Masal janri II asrlarda Babriy, Rimda Fyodr (eramizning I asri) tomonidan rivojlantirildi. Masal janri taraqqiyotiga fransuz masalchisi Lafonten (XVIII asr), rus masalchisi Krilov, Daniya masalchisi Golberg (XVIII asr), nemis masalchisi Lessing (XIX asr) katta hissa qo’shdilar.³

Eng avvalo, masal janri xalq og‘zaki ijodi mahsuli bo‘lgan, keyinchalik adabiyotga janr sifatida eramizning I va II asrlarida Babriy va Fyodr tomonidan kiritilgan bo‘lsa-da, masalchilik otasi - bu Ezopdir.

U tomonidan yaratilgan masallar og‘izdan og‘izga o‘tib, mazlum xalq tilida dostoniga aylangan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Ezop miloddan avvalgi VI asrda yashagan,

¹ Igor Klex. Masalning xazina dunyosi. Toshkent. Jahon adabiyoti. 2020.101-b

² O. Nodirov va boshqalar. O‘zbek klassik she’riyati janrlari. Toshkent. “O‘qituvchi”. 1979.148-b

³ Dilrabo Jumanova. Masal mumtoz adabiyotining qadimiy janri sifatida. Maqola.2021



dastlab qul bo‘lgan, dono fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lganligi sababli o‘zini o‘zi qullikdan xolos etgan."Kiyik bilan tokzor", "Eshak bilan baqalar", " Ustiga tuz ortilgan eshak", "Yovvoyi echkilar bilan cho‘pon", " Bo‘ri bilan laylak", "Burgut, zog‘cha va cho‘pon" kabi 500 ga yaqin masallar muallifi sanalgan Ezop masallaridagi asosiy g‘oya jamiyat tubidagi xo'rangan, ezilganlarning noroziliklarini ifodalash bo‘lgan. Shu sababli ham Ezop masallari hali hanuzgacha o‘z mavqeini, ahamiyatini yo‘qotmagan, yo‘qotmaydi ham.

Ezopdan keyin G‘arb adabiyotida masalni shakllantirgan bu rus yozuvchisi Krilovdir. U masallarni she'riy usulda yaratganligi bilan diqqatga sazovordir.Krilov adabiyotda yozuvchi sifatida emas, balki o'tkir satirik masallar ijodkori sifatida nom qoldirgan. Uning masallari syujeti ixcham, satirasi kuchli , tili o'tkir, obrazlari ishonarli va qissadan chiqarilgan xulosaning aniq va ravshanligi bilan ajralib turadi. Krilov masallari mavzu jihatidan bir qancha guruhlarga bo‘linadi: novella(" Dehqon va tulki", "Eshak", "Tovuq va qarg‘a"), satirik pamphlet ("Baliqlar raqsi", "Cho‘rtan baliq "), maishiy tematika("Ikki mushuk", "Savdogar"), satirik epigramma("Tuhmatchi va ilon", "Dub daraxti va cho‘chqa") kabi.

Hind adabiyotida ham masalchilik janri diqqatga sazovordir. Masalni insonlarning xarakterini hayvonlarga ko'chirib, ularni oqlash yo qoralash, dedik, hindlarda ham aynan shu uslubda yaratilgan, boshdan oyoq masal janrida yuzaga chiqqan "Kalila va Dimna" asarini misol qilishimiz mumkin. Ushbu asar tarkibiga kiruvchi "She'r va ho‘kiz", "Chinkabutar, qarg'a, sichqon, toshbaqa va ohu", "Maymun va toshbaqa", "Boyqush va qarg‘a", "Muahuk va kalamush" kabi naqlarni biz ayan masalaga kiritishimiz haqli bo‘ladi. Negaki , bu naqlarning obrazlari haqiqatdan hayvonlardan tashkil topgan, majoziy ruhda bitilgan hamda achchiq kinoya bilan sug‘orilgandir.

Sharq adabiyotida masal janri XIV asrga kelib dunyo yuzini ko‘rdi. Bu davrda biz masalni Navoiy ijodida uchratamiz. Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida ham, "Lison ut-tayr" asarida ham masalning namunalarini uchratish mumkin. Bundan tashqari, "Hayrat ul-abror" dagi " Sher bqilan Durroj", "Saddi Iskandariy"dagи "Bulbul hikoyati", "Kabutar hikoyati" masallari masal janrining



barcha formal-poetik va g‘oyaviy talablariga to‘la javob beradi. Chunonchi, Navoiy "Majolis un-nafois" da Mirza Hoji Sug‘diyning quyidagi baaytini keltirib, yozadi :

O‘xshotti qomatingga sanubarni bog‘bon

Bechora bilmas ermish alifdin tayog‘in.

Bug‘ina masalni yaxshig‘ina bog‘log‘on uchun umid ulkim, tengri taolo anga rahmat qilmish bo‘lg‘ay.⁴

Navoiydan keyin masal namunalarini Nishotiy, Gulxaniy ijodiyotida ko‘ramiz.

Nishotiyning "Husn va Dil" dostonida anchagina masallar berilgan. Ular "Shahboz va bulbul", "Gul va Daf", "Nay va Shamshod", "Kosayi Chin va Nargis", "Binafsha va Chang" masallaridir.

Gulxaniyni o‘zbek klassik masalchiligining atoqli namoyandasiga aylantirgan eng mashhur asari - bu "Zarbulmasal". Mazkur asar ijtimoiy hayotdagi illatlarni o‘tkir satira tig‘i bilan fosh etadi. Shoir o‘z zamonasi uchun xarakterli bo‘lgan voqea-hodisalarni yoritib beradi. Asarda feodalizmlarning dabdabali hayoti, ochko‘z, tamagir, qallob, maqtanchoq, xudbin, mansabparast ekanliklari bo‘y-basti bilan olib tashlanadi. Ushbu maqsadlarni yoritib berishda muallif allegorik ifodalash nuqtayi nazaridan "Zarbulmasal"da keltirilgan masallar ham qiymat jihatdan yuqori turguvchidir. "Maymun bilan Najjor", "Tuya bilan Bo‘talooq", "Toshbaqa bilan chayon" masallari asar to‘qimasidan munosib joy egallagan.

Hozirgi kunda esa masal janrida ijod qilayotganlar talaygina deyish biroz mushkilroq. Lekin o‘zbek adabiyotida Sami Abduqahhor, Muxtor Xudoyqulov, Yamin Qurbon, Aziz Abdurazzoq, jahon adabiyotida esa Lessing kabi yaxshi masalchilarni ham unutmaslik kerak.

Sami Abduqahhor - satirk yozuvchi va shoir. Uning masallari ham o‘z zamonasi bilan bog‘liq bo‘lib, turli voqea-hodisalarni ramziy obrazlar vositasida masalda jonlantirgan. Uning bema‘ni va maqsadsiz majlisbozliklar hamda so‘zi bilan amali boshqa-boshqa bo‘lgan kishilar to‘g‘risida "Ayiq va‘zxon", olifta va o‘ziga bino

⁴ Alisher Navoiy. "Majolis un-nafois". Ilmiy-tanqidiy tekst. 78-b



qo‘ygan kishilar to‘g‘risida "Taka bilan echki", tanish-bilishlik aks etgan "Qunduzoy bilan bo‘rsiqboy" kabi masallari g‘oya va badiiyat jihatidan juda qimmatlidir.

Yamin Qurban - masalnavis, satira ustasi. Uning masallari bilan tanishar ekanmiz, tanqid ostiga olingan obrazlar hech qanday yashirinsiz ko‘rinib turganday ko‘rinadi. Mutaxassislar "...uning satirasi tig‘idan laganbardor va muvofiq ham, tovlamachi-yu hasadgo‘y ham, manmanlikka berilgan boshliq va tufayli xil ustabuzarmonlar ham, poraxo'r hamda chalasavod o‘qituvchilar ham, hayotiy zamindan oyog'i uzilgan balandparvoz shoir-u sofdil, pok kishilarning hayotiga zomin bo‘lgan muttaham iblislar ham qochib qutula olmaydi..."⁵ degan xulosaga kelishgan.

Ushbu maqoladan xulosam shuki, masal janri adabiyotning eng qadimiylamo eng barqaror janrlaridan biridir. Uning ahamiyati shu darajada yuqoriki, G‘arb adabiyotida ham, Sharq adabiyotida ham birdek hanuzgacha foydalaniladi. U xalq tafakkurining natijasi sifatida shakllanib, yozma adabiyotda mukammallikka erishgan. Uning tarbiyaviy, axloqiy va badiiy ahamiyati bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Masallar — bu hikmat xazinasi, xalq donishmandligining timsolidir. Negaki masal janrida mahoratl ijd qilgan ijodkorlar avvalo adolat mash‘alini mahkam tutgan holda jamiyat va kishilarni salbiy illatlar, yomon xulq-atvorlarning oxir-oqibatlaridan ogohlantirib kelgan. Masallar esa bu vazifani hozirgacha ajoyib tarzda bajarib kelmoqda. Shu sababli ham bu janrning tarixiy genezisini o‘rganish, namunalari bilan tanishish esa adabiyotshunoslik sohas uchun muhim ilmiy vazifalardan, oddiy xalq uchun esa ibratomuz yo‘l-yo‘riqlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Igor Klex. Masalning xazina dunyosi. Toshkent. Jahon adabiyoti. 2020.101-b
O. Nodirov va boshqalar. O‘zbek klassik she‘riyati janrlari. Toshkent. "O‘qituvchi". 1979.148-b Dilrabo Jumanova. Masal mumtoz adabiyotining qadimiy janri sifatida. Maqola.2021 Alisher Navoiy. "Majolis un-nafois ". Ilmiy-tanqidiy tekst. 78-b
Qurban Yamin. O’tkir asal: masallar. Toshkent. Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1983. 8-9-b

⁵ Qurban Yamin. O’tkir asal: masallar. Toshkent. Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1983. 8-9-b